



Nigina A. RASULEVA,

PhD, dotsent, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: nigina1114@gmail.com, ORCID: 0009-0007-2887-2651

Dotsent, PhD N.Yunusova taqrizi asosida

BRIEF REVIEWS ON THE FOREIGN ROOTS OF THE SCIENCE FICTION GENRE

Annotation

This article analyzes the main stages of the formation and development of the science fiction genre in the Western literary process. It considers the literary and philosophical factors that influenced the emergence of this genre, as well as the work of its first representatives. In addition, it examines the aesthetic traditions that have formed the basis for the modern development of science fiction, revealing specific features of the evolution of the genre.

Key words: Western literature, science fiction, genre genesis, artistic thought, literary tradition.

КРАТКИЕ ОБЗОРЫ ЗАРУБЕЖНЫХ КОРНЕЙ ЖАНРА НАУЧНОЙ ФАНТАСТИКИ

Аннотация

В данной статье анализируются основные этапы формирования и развития жанра научной фантастики в западной литературе. Рассматриваются литературные и философские факторы, повлиявшие на возникновение этого жанра, а также творчество его первых представителей. Кроме того, исследуются эстетические традиции, сформировавшие основу для современного развития научной фантастики, выявляя специфические особенности эволюции жанра.

Ключевые слова: Западная литература, научная фантастика, зарождение жанра, художественная мысль, литературная традиция.

ILMIY FANTASTIKA JANRINING XORIJIY ILDIZLARIGA QISQACHA SHARHLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada ilmiy fantastika janrining g'arb adabiy jarayonida shakllanishi va taraqqiy etishining asosiy bosqichlari tahlil qilinadi. Ushbu janrning vujudga kelishiga ta'sir qilgan adabiy va falsafiy omillar, shuningdek, uning ilk namoyandalari ijodi haqida fikr yuritiladi. Qolaversa, ilmiy fantastikaning zamonaviy rivojlanishiga poydevor bo'lgan estetik an'analar ko'rib chiqilib, janr evolyutsiyasining aniq xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: G'arb adabiyoti, ilmiy fantastika, janr genezisi, badiiy tafakkur, adabiy an'ana.

Kirish. Ilmiy fantastika ko'plab mashhur talqinlarda asosan XX asr hodisasi hisoblanib, u avvalo G'arb texnologik taraqqiyotining tajribasi va mahsuli sifatida e'tirof etilgan. Ammo, masalaga chuqurroq yondoshsak, ilmiy fantastikaning kelib chiqish tarixini qadimiy davrlarga borib taqalganligining guvohi bo'lamiz. Masalan, ilk milodiy 150-yilda mashhur qadimgi yunon yozuvchisi, satirik va faylasuf Samostatlik Lutsian (milodiy 120-190) o'zining "Haqiqiy tarix" ("True History") romanida sayyoralararo sayohat, g'ayrioddiy mavjudotlar va urush mavzulariga allaqachon murojaat qila boshlagandi. Ushbu asarda yunon kemasi tornado bilan Oygacha olib ketilgani, Oy va Quyosh qiroli o'rtasida Yupiterni mustamlakalashtirish uchun olib borilgan urush tasvirlangan.

Ilmiy fantastik elementlar davr jihatidan bizga eng yaqinrog'i XVII asrda fransuz yozuvchisi, faylasuf va erkin fikrli adib Sirano de Bergerak ning "Oyga sayohat" (1661) hamda "Quyosh davlatlari va imperiyalari" (1662) kabi romanlarida uchraydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Darhaqiqat, o'tmishdagi ulkan hajmdagi badiiy ijod namunalari xususan, qadimgi yunon adabiyotining eng buyuk epik shoiri, keyinroq esa, Yevropa adabiy an'anasining asoschilaridan biri Gomer ning "Odisseya"si, o'rta asr Yevropa adabiyotining eng buyuk shoiri, italyan adabiy tilining asoschisi Dante Aligeri ning "Ilohiy komediya"si, ingliz faylasufi, Uyg'onish davri gumanizmining yirik namoyondasi Tomas Mor ning "Utopiya" si, XVIII asrda yashagan mashhur ingliz-irland yozuvchisi Jonatan Svift ning "Gulliverning sayohatlari" va nemis adabiyotining buyuk namoyondasi, Yevropa madaniyatida

universal ijodkor sifatida tanilgan Gyote ning "Faust" kabi klassik adabiyot asarlarida xayoliy sayohatlar, tush ko'rish va g'ayritabiiy izlanishlar ilmiy fantastikaga xos dastlabki urinishlarni ko'rish mumkin[6]. Ammo Meri Shellingning "Frankenshteyn" romani 1818-yilda paydo bo'lganidan keyingina, aytish mumkinki, zamonaviy ilmiy fantastikaning o'z-o'zini anglashiga qadam tashlandi.

"Frankenshteyn" romani boshidan oxirigacha inson hayotini laboratoriyada yaratish g'oyasi atrofida markazlashadi. Yosh olim Frankenshteyn jasad qismlaridan odam tanasini to'plab, unga hayot beradi. Lekin ko'p o'tmasdan uning o'zi ushbu yangi mavjudotni inkor qiladi va bu kashfiyotni yo'qotish payiga tushadi. Ziddiyat natijasida boshqa odamlarga xavf tug'dira boshlaydi[2]. Hikoya so'ngida olim va uning yaratgan mavjudoti bir-birini yo'q qiladi. Roman ko'plab jihatlar bilan gotik roman va g'aybiyot unsurlarini aks ettirgani bilan shuhrat qozondi. Yaratilgan mahluqotning o'ziga juftlik qidirishi va Frankenshteyn turmush o'rtog'ining to'y kechasida so'yilib ketilishi romandagi yorqin va ta'sirchan epizodlardan sanaladi. Biroq bu roman mif yaratish yoki g'ayritabiiy kuchlar motiviga emas, balki texnologiya qudratiga asoslangan mug'ombir fantastikadir. Shu sababli "Frankenshteyn" dunyodagi birinchi haqiqiy ilmiy fantastik roman sifatida keng e'tirof etiladi. Roman davr odamlarning ilm-fanning ezigulik yoki yovuzlikka olib kelishi mumkinligiga bo'lgan havotirlarini va gumonlarini yoritib beradi.

Meri Shelli bilan bir qatorda, XIX asrning ba'zi nomdor ijodkorlari, jumladan, amerikalik yozuvchi Nataniyel Xotorn hamda amerikalik shoir va adabiy tanqidchi Edgar Allan Po

ham ilmiy fantastika janrida qalam tebratishgan. Nataniyel Xotom (1804-1864), taniqli amerikalik yozuvchi va qisqa hikoyalar muallifi bo'lib, o'z ijodiy faoliyatida ilmiy fantastika va fantaziya janrlarida bir nechta romanlar yaratgan. Xususan, "Doktor Xaydeggerning tajribasi" (1837), "Tug'ilish dog'i" (1843) va "Rappakining qizi" (1844) romanlarida u o'quvchilarini haddan tashqari ilmiy o'sishning kutilmagan xatarlari haqida ogohlantiradi. Lekin Xotomni ilm-fandan ko'ra ko'proq axloqiy masalalar, masalan, gunohkorlik va ma'sumlik muammolari ko'proq qiziqtirgan. Yana bir atoqli amerikalik yozuvchi Edgar Allan Po (1809-1849), o'zining gotik uslubidagi qo'rqinchli hikoyalari va detektiv asarlari bilan nom qozongan, shuningdek, ilmiy fantastik adabiyot deya tasniflanishi mumkin bo'lgan bir qator romanlar yozgan. Edgar Allan Poning "Mislisiz sarguzasht" (1836) hikoyasi va "Artur Gordon Pimning sarguzashtlari" (1838) romani mashhur asarlar sifatida tan olinadi. Qadimgi "Oyga sayohat" mavzusining satirik usulda yozilgan varianti bo'lib, bunda qahramon o'zi qurib olgan havo sharida Oyga uchadi. Artur Gordon Pim esa oddiy dengiz sarguzashti hikoyasidan janubiy qutb yaqinidagi g'aroyib makon va yangi madaniyatlarni kashf etish bilan yakunlanadigan g'ayritabiiy hikoyasini ham taqdim etgan[5]. Garchi ingliz yozuvchisi, adabiy tanqidchi Brayn Uilson Adliss Poning "Eng yaxshi romanlari ilmiy fantastika janrida emas va uning ilmiy fantastika romanlari ham uning eng yaxshi asarlari qatorida emas" deb ta'kidlangan bo'lsa-da, bu asarlar Poga ilmiy mavzulari va kuchli tasavvuriy qobiliyati tufayli zamonaviy ilmiy fantastikaning asoschilaridan biri sifatida salmoqli o'rin beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Shved ilmiy fantastika tanqidchisi, Yevropa ilmiy fantastikasining muhim targ'ibotchilaridan biri Sam J. Lyundvallning fikriga ko'ra, ilmiy fantastika uchun tom ma'nodagi yutuq G'arbdagi sanoatlashtirish davri bilan bog'liq. O'sha paytda koinotning eshiklari kutilmaganda keng ochilgan va imkonsiz narsaning o'zi yo'qdek tuyulardi. Ushbu davr ilmiy fantastikaning ikki buyuk kashshoflari – Jyul Vern va H. G. Uyellsni dunyoga keltirdi. Ularning XIX asr o'rtalari va oxirlarida yozgan romanlari va hikoyalari janrning keyingi rivojlanishiga oldindan ishora bergan, fantastik sarguzashtlarni ilmiy jihatdan ishonarli chiqishiga sabab bo'lgandi. Ayniqsa, Uyells o'z asarlarida ilmiy taraqqiyotning insoniyat jamiyatiga ta'sirini bashorat qilishga uringan.

Fransuz yozuvchisi Jyul Vern (1828-1905) "ilmiy fantastika otasi" sifatida e'tirofga sazovor bo'lib keladi. U "Noyob sayohatlar: Noma'lum va ma'lum dunyolar" kabi romanlari bilan janrni takomillashuvida betakror hissa qo'shgan. Ushbu romanlar turli mavzularni qamrab oladi, mazkur ijod namunalari safiga "Yer markaziga sayohat" (1864) geologik tadqiqotlar, "Yerdan Oyga sayohat" (1865) kosmik sayohatlar haqida hikoya qiluvchi "Dengiz ostida yigirma ming liga" (1870) kabi romanlarni ham kiritish muki. Vern sanoat inqilobi davrida adabiyotdagi qadimgi ajoyib sayohatlar an'anasini maqsadli tarzda yangilashga muvaffaq bo'ldi. Uning romanlari o'z davri texnologik mo'jizalarning yorqin va batafsil tasviri hamda fan va ilmiy kashfiyotlarning hayajonli imkoniyatlariga bo'lgan ishonchning yorqin tasviri bilan xarakterlanadi. Shuning uchun, Vernni qattiq ilmiy fantastikaning haqiqiy timsoli deb atash mumkin.

Tahlil va natijalar. Uelsning ilmiy fantastikasi keyinchalik bu janrda keng tarqalgan asosiy mavzular sifatida tarqalgan mavzularni kirib kelishiga turtki bo'ldi. Vaqt sayohati, dunyoning yo'q bo'lib ketish ehtimoli, odam va o'zga sayyoraliklarning uchrashuvi, notanish mavjudotlar bosqini kabi mavzular shular jumlasidandir. Uning romanlarida asosan madaniy tanazzul, an'anaviy chegaralarning xiralashuvi, texnologik taraqqiyotning muqarrar halokatli oqibatlarini va

Viktoriya davri ishonchining tushib borayotgan imperial madaniyatda yo'qolishi haqidagi chuqur havotirlar ochiq-oydin ifodalab berilgan. Shu ma'noda, Uyellsni yumshoq ilmiy fantastikaning tipik vakili deb atash ham mumkin. Uning "ilmiy romantika" deb atagan romanlari Jyul Vern boshchiligidagi "ilmiy fantastika maktabi" dan yaqqol farqlanib, ilmiy fantastika yaratish an'analari uchun burilish deb hisoblanishi mumkin.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida boshqa bir qator britaniyalik mualliflar ham ilmiy fantastik romanlar yozganlar, ulardan mashhurlari orasida ingliz (shotlandiyalik) yozuvchi Robert Luis Stivenson ning "Doktor Jekill va Janob Xayd" (1886), detektiv janri asoschisi Artur Konan Doyl ning "Yo'qolgan dunyo" (1912), va faylasuf va publitsist Oldos Haksli ning "Yangi dunyo" (1932) romanlari bor edi. Shuningdek, 1890-yillardan 1930-yillargacha ingliz tilidan tashqari boshqa tillarda ijod qilgan taniqli ilmiy fantastika adiblari ham bo'lgan, ular orasida nemis yozuvchisi Kurd Lassvits, fransuz yozuvchisi, ilmiy fantastikaning ilk vakillaridan biri J. H. Rosni-Ayne, rus yozuvchisi Yevgeniy Zamyatin, va mashhur chex dramaturgi Karel Chapek ham bo'ldi. Ularning barchasi Uyellsning zamondoshlari bo'lib, 1926-yilgacha ma'lum va mashhur ilmiy fantastik romanlarni yaratganlar.

Ammo, Birinchi jahon urushi (1914-1918) va Ikkinchi jahon urushi (1939-1945) davrida Yevropada ilmiy fantastika adabiyotining ravnaq topishiga nafaqat to'sqinliklar bo'ldi, balki u rivojlanishdan to'xtab qoldi. 1940-yillarning oxiri va 1950-yillarning boshlarida bu janr qayta jonlanib, o'zining oltin davriga yetib kelganida, Amerika ilmiy fantastika adabiyoti esa allaqachon sahnani egallab, o'z an'analarini shakllantirib bo'lgan edi.

Jumladan, 1926-yil qator adabiy tanqidchilar va kitobxonlar uchun zamonaviy ilmiy fantastika rivojlanishidagi muhim yil hisoblanadi. Aynan shu yilda mashhur amerikalik ilmiy fantastik yozuvchi va muharrir Hugo Gernsbek (1884-1967) tomonidan tahrirlangan Amerikaning "Ajoyib hikoyalar" ("Amazing stories") jurnalining birinchi soni nashr etiladi. Gernsbek bu janrga hozirgi nomini va maqomini bergan. "Ajoyib hikoyalar" ning ilk sonlarini chiqarayotgan paytda Gernsbek yangi janrni "ilmiylashgan" deb atagan. Adib buni quyidagicha izohlaydi: "Ilmiylashgan- deganda men Jyul Vern, H.G. Uyells va Edgar Allan Po tipidagi hikoyalarni nazarda tutaman — ya'ni ilmiy haqiqat va bashoratli tasavvurlar bilan to'ldirilgan ajoyib romanlardir". Keyinchalik, 1929-yilda ilm-fanga oid "Hayratlanarli hikoyalar" jurnalini tashkil qilganida, Gernsbek janr nomini "ilmiy fantastika" deb o'zgartirdi, bu atama hozirgi kunga qadar ishlatilib kelinmoqda[8].

"Hayratlanarli hikoyalar" chop etilishining dastlabki yillarida Gernsbek jurnal sahifalarini Edgar Allan Po, Jyul Vern, H. G. Uyells, Richard Adams Lok, Fitz-Jeyms Brayn va Ellis Parker Batler ning eski asarlaridan qayta chop etilgan hikoyalar bilan to'ldirdi. Shu vaqtda, Gernsbek jurnal uchun juda yorqin orqa va old muqovalarni tayyorlash uchun amerikalik ijodkor rassom Frank R. Pol ni ishga oldi. Garchi keyingi yillarda tanqidchilar tomonidan ilmiy fantastik roman an'analarini qo'pollashtirishda ayblangan bo'lsa ham bu uslub o'z davri uchun juda ta'sirli edi. Gernsbek ilmiy fantastika ilmiy ma'lumotlarni yoyish va yosh ilm-fan ixlosmandlarini rag'batlantirish vositasi bo'lishi mumkinligiga ishonardi. Ammo, boshqa tomondan, u oddiy o'quvchilar e'tiborini tortadigan "yoqimli, jozibador" roman bo'lishini istagandi. Bunday estetik me'yorlar ilmiy fantastikaning "Pulp (turg'unlik) davri" bilan bog'liq bo'lgan bir qator "kosmik operalar"ni dunyo yuzini ko'rishiga olib keldi. Gernsbek ilmiy fantastik syujetlarida ilmiy aniqlik zarurligini alohida ta'kidlagani uchun, bu janrning tasavvurlarini sezilarli darajada

cheklab qo'ygan edi. Bu cheklovlariga qaramay, Gernsbekning "Hayratlanarli hikoyalar" jurnali shu qadar mashhur bo'lib ketdiki, 1920-yillarning oxiri va 1930-yillarda "Ilmiy ajoyibot hikoyalari", "Aql bovar qilmas hikoyalar" kabi boshqa pulp jurnallar tez-tez nashr qilindi. Ular orasida 1930-yilda amerikalik yozuvchi va muharrir, ilmiy fantastikaning "Oltin davri" ni boshlab bergan shaxs sifatida mashhur Jon Kembel tomonidan asos solingan "Aql bovar qilmas hikoyalar" jurnali Gernsbekning shaxsiy nashriyotiga ayniqsa kuchli raqobatchiga aylandi.

1930-yillarning oxiriga kelib, AQSH da ilmiy fantastika o'zining maxsus jurnallari va o'quvchilarini shakllantirib bo'lgandi. Myurrey Leynster, David H. Keller, Jek Uilyamson, Bob Olsen, Harl Vinsent va Filipp Frensis Noulan kabi yangi yozuvchilar pulp jurnallarida o'z nomlarini qoldirishdi. Ulardan eng ko'zga ko'ringani amerikalik ilmiy fantastika yozuvchisi, kosmik opera janrining asoschilaridan biri E.E.Smit bo'lib, u birinchi bo'lib "Koinot to'rg'ayi" romani bilan tanqidchilar e'tiboriga tushdi.

E.E.Smit ilmiy fantastik yozuvchilar orasida taniqlisi edi, u birinchi bo'lib 1928-yilda chop etilgan "Koinot to'rg'ayi" romani bilan, keyinroq esa "To'rg'ay" va "Lensman" nomli turkum hikoyalari bilan mashhurlikka erishdi. Bu "kosmik operalar" turkumi bo'lib, ular ilm-fan, yulduzlararo sayohat va superqahramonlar bilan to'ldirilgan edi. Garchi Pulp davridagi "kosmik operalar" bilan ifodalangan ilmiy fantastika romanlari ko'pincha o'ta qo'pol va ko'proq mazmundan ko'ra harakatga e'tibor qaratgan deb hisoblangan bo'lsa-da, ular 1940-1950 yillardagi "Oltin davr" ni ilmiy fantastik yozuvchilar uchun ochib bergan edi[3].

Gernsbek davridagi ilmiy fantastikadan so'ng, Amerika ilmiy fantastik adabiyotining keyingi bosqichi 1937-yilda boshlandi. O'sha yili Jon V. Kempbell Jr. (1910-1971) "Aql bovar qilmas hikoyalar" jurnalining muharriri sifatida ish boshladi va uning rahbarligida jurnal yangi turdagi ilmiy fantastikani namoyish qilish an'anasini boshlab berdi. Muallif sifatida, ayniqsa Don A. Styuart taxallusi bilan yozganida, Kembel janrning texnik va bashoratli jihatlariga kayfiyat va xarakteristika bag'ishlagan edi. Muharrir sifatida esa, Kembel boshqa yozuvchilarni adabiy qiymatga ega romanlar yaratishga undadi va shu bilan ilmiy fantastikaning "Oltin davri" (1938-1950) deb ataladigan davrning poydevorini qo'ydi. Aslida, Kembel ko'plab ilmiy fantastik yozuvchilari va tanqidchilari tomonidan "ilmiy fantastikaning eng buyuk muharriri" sifatida

tan olinadi, u ilmiy fantastika janrining ravnaq topishida ko'pgina boshqa muharrirlardan ko'ra kattaroq rol o'ynagan[4]. Uning muharrirligi ostida "Aql bovar qilmas hikoyalar" jurnali tez orada ilmiy fantastika sohasida yetakchi nashrga aylandi va Qo'shma Shtatlarning eng obro'li ilmiy fantastik adabiyoti yozuvchilari bilan uzviy bog'landi.

Agar Haynlayning 1930-yillarning oxiri va 1960-yillarning boshlarida yaratgan romanlari va qisqa hikoyalari bo'lmaganida Robert A. Haynlayn (1907-1988) ilmiy fantastika tarixidagi ehtimol eng ko'p iz qoldirgan ijodkorlardan biri bo'lar, zamonaviy ilmiy fantastika esa hozirgi holatidan ancha farq qilishi mumkin edi. Uning tasvirlagan kelajagi juda haqqoniy unsurlarni mujassamlashtirib, voqealar sodir bo'layotganini o'z ko'zlari bilan kuzatayotgandek tuyuladi. Asosiy romanlari qatoriga "Qizil sayyora" (1949), "Oyni pullagan odam" (1950), "Ikki yulduz" (1956), "Yulduz kemasi askarlari" (1959), "G'ayrioddiy sayyoradagi g'alati odam" (1961) va "Oy-shafqatsiz beka" (1966) kabilar kiradi. "G'ayrioddiy sayyoradagi g'alati odam" Haynlaynning eng ko'p sotilgan romani bo'lib, birinchi Mars ekspeditsiyasidan omon qolgan yagona inson Valentin Maykl Smit haqida hikoya qiladi. U Marsda tug'ilib va tarbiyalanib, Yerga super odam sifatida qaytadi. U o'zi bilan yangi diniy tushunchalarni olib keladi va zamonaviy Masih obraziga aylanadi, oxir-oqibat o'z hamyurtlari tomonidan o'ldiriladi. Mazkur roman hazil, satira va donolik sarchashmalari bilan to'la bo'lib, o'quvchini o'ta hayratga solishi bilan birga hech ham zeriktirib qo'ymaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ilmiy fantastika janri o'zining uzoq tarixi davomida ilmiy tafakkur, estetik qarashlar va keng tasavvurning barqaror uyg'unlashuvi natijasida rivojlangan. Uning xorij adabiyotidagi ildizlari tarixiy utopik asarlardan boshlanib, XIX-XX asrlarda fan va texnologiya taraqqiyoti ta'sirida mustaqil adabiy hodisa sifatida taraqqiy etdi. Ayniqsa, yuqorida nomlari tilga olingan Yevropa adiblari ijodida ilmiy fantastikaning nazariy asoslari mustahkamlanib, keyingi davr yozuvchilari uchun muhim maktab vazifasini bajardi. Hozirda, ilmiy fantastika nafaqat ilmiy-texnik rivojlanishni badiiy ochib beruvchi janr, balki jamiyat, inson va kelajak muammolarini tahlil qiluvchi muhim adabiy jarayon sifatida talqin qilinmoqda. Shu bois, ilmiy fantastikaning xorijiy ildizlarini o'rganish, mazkur janrning zamonaviy rivojlanish qonuniyatlarini anglash muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Бритиков А. Ф. Отечественная научно-фантастическая литература: Некоторые проблемы истории и теории жанра. — СПб.: Борея-Арт, 2000. — С. 400.
2. Булычев К. Как стать фантастом // Фантастика 2000. — М.: АСТ, 2000. — С. 413–496.
3. Гаррисон Г. Фантастическая сага. — М.: ЭКСМО, 1998. — С. 420 с.
4. Переслегин С. Око тайфуна: Последнее десятилетие советской фантастики. — СПб.: Terra Fantastica, 1994. — С. 256 с.
5. Мышко Д.Р. Философские аспекты научной фантастики С.Лема: Автореф. дис. ... канд. филол. наук /РАН, Ин-т славяноведения и балканистики. - М., 1992. - С. 22.
6. Allen, David. Isaac Asimov [A]. In: Bleiler, R. (ed.). Science Fiction Writers: critical studies of the major authors from the nineteenth century to the present day (2nd edition) [M]. New York: Charles Scribner's Sons, 1999: 223-32.
7. Cavallaro, Dani. Cyberpunk and Cyberculture: Science Fiction and the Work of William Gibson [M]. London & New Brunswick N: The Athlone Press, 2000.
8. Clute, John & Nicholls, Peter (ed.). The Encyclopedia of Science Fiction [Z]. New York: St Martin's Press, 1996.
9. <https://www.cnki.net/>
10. <http://www.wanfangdata.com.cn/>